

**SAMARQAND AGROINNOVATSIYALAR VA TADQIQOTLAR  
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI  
PhD.05/28.08.2024.Qx.182.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND AGROINNOVATSIYALAR VA TADQIQOTLAR  
INSTITUTI**

**SHAMSIYEVA SHAXNOZA BAXODIROVNA**

**KARTOSHKA O'SIMTA KO'CHATLARINI TAKRORIY EKINDA  
ILDIZDAN TASHQARI OZIQLANTIRISHNING O'SISHI,  
RIVOJLANISHI VA HOSILDORLIGIGA TA'SIRI**

**06.01.08 – O'simlikshunoslik**

**Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по сельскохозяйственным наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on agricultural sciences**

**Shamsiyeva Shaxnoza Baxodirovna**

Kartoshka o‘simta ko‘chatlarini takroriy ekinda ildizdan tashqari  
oziqlantirishning o‘sishi, rivojlanishi va hosildorligiga ta’siri ..... 3

**Шамсиева Шахноза Баходировна**

Влияние внекорневой подкормки на рост, развитие и урожайность  
картофеля при выращивании рассадными ростками в качестве  
повторной культуры..... 21

**Shamsieva Shaxnoza Baxodirovna**

The effect of foliar feeding on the growth, development and yield  
of potato node seedlings as a repeated crop ..... 41

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 45

**SAMARQAND AGROINNOVATSIYALAR VA TADQIQOTLAR  
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI  
PhD.05/28.08.2024.Qx.182.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND AGROINNOVATSIYALAR VA TADQIQOTLAR  
INSTITUTI**

**SHAMSIYEVA SHAXNOZA BAXODIROVNA**

**KARTOSHKA O'SIMTA KO'CHATLARINI TAKRORIY EKINDA  
ILDIZDAN TASHQARI OZIQLANTIRISHNING O'SISHI,  
RIVOJLANISHI VA HOSILDORLIGIGA TA'SIRI**

**06.01.08 – O'simlikshunoslik**

**Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Qx1485 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.samaguni.uz](http://www.samaguni.uz)) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Sanayev Sobir Toyirovich**  
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Xamzayev Abdushukur Xudoykulovich**  
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

**Lapasov Sayfiddin Sanaqulovich**  
qishloq xo'jaligi fanlari falsafa doktori, katta ilmiy xodim

**Yetakchi tashkilot:**

**Toshkent davlat agrar universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti huzuridagi PhD.05/28.08.2024.Qx.182.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «30» 05 soat 14<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 141001, Samarqand viloyati, Oqdaryo tumani, Dahbet qo'rg'oni, A.Temur ko'chasi 7-uy. SamATI Tel: (+99866) 492-81-16; faks: (+99866) 492-81-16; e-mail: [info@samaguni.uz](mailto:info@samaguni.uz); Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti bosh binosi, 2-qavat, kichik majlislar zali).

Dissertatsiya bilan Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 3 -raqami bilan ro'yxatga olingan). (141001, Samarqand viloyati, Oqdaryo tumani, Dahbet qo'rg'oni, A.Temur ko'chasi 7-uy. SamATI Tel: (+99866) 492-81-16).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «15» 05 kuni tarqatildi.  
(2025-yil «17» 04 dagi 3 - raqamli reyestr bayonnomasi).



**Sh.X.Rizayev,**

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash  
raisi, q.x.f.d., dotsent.

**I.X.Amanturdiyev,**

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, q.x.f.f.d., dotsent.

**E.Umurzakov,**

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi  
o'rinbosari q.x.f.d., professor.

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Bugungi kunda kartoshka “dunyo dehqonchiligida 23,5 mln gektar maydonga ekilib, o‘rtacha hosildorligi 18,6-19,0 t/ga.ni, yalpi hosil 439,0 mln. tonnani tashkil etmoqda. Dunyoda kartoshka yetishtirishda Xitoy (93,4 mln. t.), Hindiston (60,1 mln. t.), Ukraina (21,3 mln. t.), Amerika (19,9 mln. t.), Rossiya (19,3 mln. t.), Germaniya (11,6 mln. t.), Bangladesh (10,4 mln. t.), Fransiya (8,6 mln. t.), Pokiston (8,3 mln. t.) kabi davlatlar yetakchilik qilib, olinayotgan yalpi hosilning 55-57 % ushbu mamlakatlar hissasiga to‘g‘ri keladi”<sup>1</sup>. Kartoshka ekinini yetishtirishda urug‘lik materialiga eng ko‘p xarajat sarflanadi (55-60 %), bu borada, kartoshkani tunganaksiz ko‘paytirish yo‘llarini ishlab chiqishda kartoshkani botanik urug‘idan, o‘simta ko‘chatlaridan yetishtirish texnologiyasini ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi.

Dunyoda kartoshkadan yuqori va sifatli urug‘bop va tovar hosil olishda intensiv resurstejovchi texnologiyalar mini va mikro tunganaklardan hamda tunganaklarni bo‘lib ko‘paytirish, ikki hosilli ekin sifatida o‘stirish, in-vitro sharoitida o‘simliklarni bo‘lib ko‘paytirish orqali yetishtirish hisobiga tannarxi past, arzon, ekologik sof mahsulot yetishtirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, bu borada kartoshka navlarini takroriy ekin sifatida yetishtirishda o‘simta ko‘chatlaridan o‘stirish hamda parvarishida o‘sishni boshqaruvchi preparatlarni va bioo‘g‘itlarni qo‘llashning samarali usullarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda Respublikamizda oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash maqsadida kartoshka yetishtirish hajmlarini ko‘paytirish, kartoshka urug‘chiligini rivojlantirishga katta e‘tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 23-fevraldagi “Respublikada urug‘lik kartoshkasini yetishtirishni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3558-sonli qarorining ijrosi jarayonida kartoshkachilik markazlarini tashkil etish, mahalliy kartoshka urug‘lik tunganaklarini yetishtirish hisobiga dehqon, fermer va tomorqa xo‘jaliklariga arzon tannarxli urug‘lik tunganaklarni etkazib berish muhim vazifa etib belgilangan.<sup>2</sup> Bu borada, respublikada kartoshka yetishtirishda urug‘lik importini kamaytirish va tannarxini arzonlashtirishda kartoshka navlarini tunganaksiz o‘simta ko‘chatlaridan asosiy va takroriy ekin sifatida yetishtirish texnologiyasini takomillashtirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-yanvardagi “Mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini yanada ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5303-son Farmoni, 2019-yil 23-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasini qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5853-son Farmoni, 2020-yil 6-maydagi “Respublikada kartoshka yetishtirishni kengaytirish

---

<sup>1</sup><http://www.fao.org/faostat/en>

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 23-fevraldagi “Respublikada urug‘lik kartoshkasini yetishtirishni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” to‘g‘risidagi PQ-3558-sonli Qarori

va urug‘chiligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4704-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 14-iyundagi “Kartoshka yetishtirish hajmlarini ko‘paytirish, kartoshka urug‘chiligini rivojlantirish va urug‘lik fondini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 374-son qarorlari hamda sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Kartoshka navlarini takroriy ekin sifatida o‘stirish, tunganaksiz ko‘paytirish, kartoshka o‘shishi, rivojlanishi, mahsuldorligi va hosildorligiga o‘shishni boshqaruvchi preparatlar hamda bioo‘g‘itlarning ta‘sirini o‘rganish bo‘yicha respublikamizda N.N.Balashev, D.T.Abdukarimov, V.I.Zuyev, T.E.Ostonaqulov, X.Ch.Bo‘riyev, I.T.Ergashev, A.X.Hamzayev, A.A.Elmurodov, S.T.Sanayev, N.N.Usmonov, X.X.Xonqulov, B.M.Eshonqulov xorijda O.G.Korneva, L.N.Litvinov, I.A.Skryabin, A.V.Tolmachev, L.K.Sharma, N.K.Subramanian, H.M.Cho, B.J.Zebarth va boshqalar tomonidan keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Lekin, Samarqand viloyati sharoitida takroriy ekin sifatida kartoshkani o‘simta ko‘chatlaridan ekib o‘stirishga mos navlarini ajratish va ularni yetishtirishda o‘shishni boshqaruvchi preparatlarni qo‘llash hamda bioo‘g‘itlar bilan ildizdan tashqari oziqlantirishga oid ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti O‘simlikshunoslik va meva-sabzavotchilik kafedrasida ilmiy tadqiqot ishlari rejasining “Qishloq xo‘jalik ekinlarining intensiv tipdagi yuqori hosilli nav va duragaylarini yaratish, iqlimlashtirish hamda ekologik toza mahsulot ishlab chiqarishda ilmiy jihatdan asoslangan resurtejamkor agrotexnologiyalarini ishlab chiqish” mavzusi doirasida bajarilgan (2019-2024 yy.).

**Tadqiqotning maqsadi** takroriy ekinda kartoshkani o‘simta ko‘chatlaridan o‘stirishga mos navlarni ajratish hamda o‘shishni boshqaruvchi preparatlar va bioo‘g‘itlar bilan ildizdan tashqari oziqlantirishning o‘simta ko‘chatlar tutuvchanligi, o‘shishi, rivojlanishi, mahsuldorligi va hosildorligiga ta‘sirini o‘rganish hamda ishlab chiqarishga tavsiyalar berishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

Samarqand viloyatining o‘tloqi-bo‘z tuproqlari sharoitida takroriy ekinda kartoshka navlarining turli vazndagi urug‘lik tunganaklaridan o‘simta ko‘chat chiqimini hamda o‘simta ko‘chatlarning tutuvchanligini aniqlash;

takroriy ekinda kartoshka navlari o‘simta ko‘chatlarining o‘shishi, rivojlanishi, mahsuldorligi va hosildorligini aniqlash;

kartoshka navlari takroriy ekin sifatida o'simta ko'chatlaridan o'stirilganda o'sishni boshqaruvchi preparatlar va bioo'g'itlar bilan ildizdan tashqari oziqlantirishni o'simliklarning o'sishi hamda rivojlanishiga ta'sirini aniqlash;

kartoshka o'simta ko'chatlarini o'suv davrida ildizdan tashqari oziqlantirishning mahsuldorlik, hosildorlik va hosil sifatiga ta'sirini aniqlash;

kartoshka navlarini takroriy ekin o'simta ko'chatlaridan o'stirishda turli komponentli preparatlar bilan ildizdan tashqari oziqlantirib yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini aniqlash va ishlab chiqarishga tavsiyalar berish.

**Tadqiqotning ob'ekti** sifatida o'tloqi bo'z tuproqlar, kartoshkaning tezpishar Alyaska, Universa, Arizona, Rozara, o'rtatezpishar Impala Zafira, Evolyushn, Aladin, Memfis, o'rtapishar Lizetta, Saviola, Silvana navlari, o'sishni boshqaruvchi preparat Gibbersib, bioo'g'itlardan Baykal EM-1, Organit N va Bio-Si olingan.

**Tadqiqotning predmeti** bo'lib takroriy ekin o'simta ko'chatlarining tutuvchanligi, o'sishi, rivojlanishi, mahsuldorligi, hosildorligi, hosil sifati va iqtisodiy samaradorligiga o'sishni boshqaruvchi preparatlar va bioo'g'itlarning ta'siri hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dala va laboratoriya tajribalarini o'tkazish, fenologik kuzatuvlar va biometrik o'lchovlar, laboratoriya tahlillari "Dala tajribalarini o'tkazish uslublari", "Методика Государственного сортоиспытания сельскохозяйственных культур", "Sabzavot, poliz va kartoshka ekinlarida tajribalar o'tkazish uslubi" kabi uslubiy qo'llanmalar asosida olib borilgan. Tadqiqot natijalarining statistik tahlili Microsoft Exsel dasturi yordamida B.A.Dospexovning "Методика полевого опыта" qo'llanmasi asosida amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ilk bor Samarqand viloyatining o'tloqi bo'z tuproqlari sharoitida takroriy ekin o'simta ko'chatlaridan urug'lik tuganaklaridan olingan o'simta ko'chatlaridan yetishtirish agrotexnologiyasi ishlab chiqilgan;

kartoshka navlari tuganaklaridan o'simta chiqimi (4,2-4,6 dona), ko'chatlarning tutuvchanligi (76,2-77,9 %), o'suv davri oxirida ko'chatlarni saqlanib qolishi (108,2-110,6 ming dona/ga), o'suv davrining davomiyligiga (85-101 kun) ko'ra, Arizona, Evolyushn, Saviola navlarining takroriy ekin o'simta ko'chatlaridan o'stirishga mos ekanligi ilmiy asoslangan;

kartoshka navlari o'simta ko'chatlaridan takroriy ekin o'stirilganda hosildorlik tezpishar navlarda 20,2-22,7 t/ga, o'rtatezpishar navlarda 21,0-23,5 t/ga, o'rtapishar navlarda 21,5-24,3 t/ga, tovar hosil chiqimi mos ravishda 94,1-95,2; 94,3-95,8 va 93,8-96,2 % bo'lishi isbotlangan;

kartoshka navlari takroriy ekin o'simta ko'chatidan o'stirilganda ekish oldi o'sishni boshqaruvchi Gibbersib preparatida ishlab, o'suv davrida Bio-Si biopreparati bilan ildizdan tashqari oziqlantirish ko'chatlarning tutuvchanligi (89,9-92,0 %), o'simlik bo'yi (100,7-110,2 sm), yon shox soni (5,2-6,2 dona), barg

soni (84,6-94,7 dona), barg sathi (37,7-40,8 ming m<sup>2</sup>), palak vazni (370,9-482,7 g) hamda ildiz vaznining (42,6-44,7 g) yuqori va ko'p shakllanishi ilmiy asoslangan;

kartoshka o'simta ko'chatlari takroriy ekinda ekish oldidan o'sishni boshqaruvchi (Gibbersib) preparatlar bilan ishlanib, o'suv davrida bioo'g'itlar (Bio-Si) bilan ildizdan tashqari oziqlantirish bir uyadagi tuganak vaznini Arizona navida 74,5 g, Evolyushn navida 81,0 g, Saviola navida 85,6 g/tup.ga, tuganak hosilini 3,2; 3,5 va 3,8 t/ga ko'p bo'lib, navlar bo'yicha gektaridan 23,8-25,6; 25,2-27,7 va 27,1-30,8 mln.so'm sof foyda olinib, rentabellik darajasi 69,9-75,8; 72,4-80,3; 80,9-92,6 % yuqori bo'lishi isbotlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Samarqand viloyatining o'tloqi bo'z tuproqlari sharoitida takroriy ekinda kartoshkani o'simta ko'chatlaridan o'stirish, urug'lik tuganaklar sarfini 54,6-64,3 % ga tejalishi, o'simta ko'chatlarini parvarishida o'sishni boshqaruvchi preparatida ishlash va bioo'g'it bilan ildizdan tashqari oziqlantirish yuqori samara berishi ilmiy asoslangan;

kartoshka navlari takroriy ekinda o'simta ko'chatlaridan o'stirilganda ko'chatlar ekish oldidan Gibbersib eritmasida ishlanib, o'suv davrida (ko'chatlar tutgandan so'ng, shonalash va gullash davrida) Bio-Si bioo'g'iti bilan ildizdan tashqari oziqlantirilganda ko'chatlarning tutuvchanligi, amal davri oxirida saqlanib qolgan ko'chatlar soni, o'simlik bo'yi, bir tupdagi palak va tuganak vaznini yuqori bo'lishiga erishilgan;

takroriy ekinda kartoshka navlarini o'simta ko'chatlaridan yetishtirishda ekish oldi Gibbersib eritmasida (25 g 10 litr suvga) ishlab, o'suv davrida (ko'chatlar tutgandan so'ng, shonalash va gullash davrida) Bio-Si bioo'g'iti (75 g/ga) bilan ildizdan tashqari oziqlantirish 1 s hosil tannarxini 16258,4-16825,2 so'mga arzon, sof foyda 6864,8-8244,8 mln.so'mga yuqori, rentabellik darajasini 34,3-35,5 % ga ortishini ta'minlagan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Dala va ishlab chiqarish tajribalarining uslubiy jihatdan to'g'ri o'tkazilganligi, dissertatsiya bajarishda foydalanilgan uslublarning tadqiqotlarni bajarishga mosligi, olingan nazariy va amaliy natijalarning bir-biriga mos kelishi, tajribalardan chiqarilgan xulosalar va qonuniyatlarning asoslanganligi, olingan natijalarni mahalliy va xorijiy ilmiy tadqiqotlar bilan taqqoslanganligi, tadqiqot natijalarining respublika va xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilinganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Samarqand viloyatining o'tloqi bo'z tuproqlari sharoitida tezpishar, o'rtatezpishar, o'rtapishar kartoshka navlarining o'simta ko'chatlari takroriy ekinda o'sishni boshqaruvchi preparatlarda ishlanib, o'suv davrida ildizdan tashqari bioo'g'itlar bilan oziqlantirib parvarishlanganda ko'chatlarning tutuvchanligi, ildiz tizimining shakllanishi, o'sishi, rivojlanishi, tuganak hosili va tovar hosil chiqimi hamda sifatiga ijobiy ta'siri ilmiy asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, Samarqand viloyatining o‘tloqi bo‘z tuproqlari sharoitida takroriy ekinda kartoshka navlarini o‘simta ko‘chatlaridan yetishtirish, urug‘lik tuganaklaridan yetishtirishga nisbatan urug‘lik materiallar sarfini kamayishi, o‘simta ko‘chatlari parvarishida ekish oldidan o‘shni boshqaruvchi preparatlar bilan ishlab, o‘suv davrida bioo‘g‘itlar bilan ildizdan tashqari oziqlantirilganda yuqori va tovarbop hosil yetishtirish hisobiga iqtisodiy jihatdan samarali ekanligi isbotlanib, ishlab chiqarishga joriy etilganligi bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Samarqand viloyatining o‘tloqi bo‘z tuproqlari sharoitida kartoshka navlari takroriy ekin sifatida o‘simta ko‘chatlaridan o‘stirilib, parvarishida o‘shni boshqaruvchi preparatlar va bioo‘g‘itlarning samaradorligini o‘rganish bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

dehqon, fermer va tomorqa xo‘jaliklari uchun “Takroriy ekin sifatida kartoshka navlarini o‘simta ko‘chatlaridan o‘stirish texnologiyasi” nomli tavsiyanoma ishlab chiqilgan va tasdiqlangan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024-yil 21-dekabrda №05/06-04-674-sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur tavsiyanomadan dehqon, fermer va tomorqa xo‘jaliklari takroriy ekinda kartoshka navlarini o‘simta ko‘chatlaridan yetishtirishda uslubiy qo‘llanma sifatida foydalanilmoqda;

takroriy ekin sifatida kartoshka navlarini o‘simta ko‘chatlaridan o‘stirilib, parvarishida o‘shni boshqaruvchi “Gibbersib” preparati va Bio-Si bioo‘g‘itini (75 g/ga) qo‘llash texnologiyasi Samarqand viloyatining Bulung‘ur tumanida 3,9 gektar, Toyloq tumanida 2,1 gektar va Oqdaryo tumanida 0,3 gektar, jami viloyat bo‘yicha 6,3 gektar maydonga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024-yil 21-dekabrda №05/06-04-674-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, ushbu agrotexnologiyani qo‘llash orqali 22,8-26,9 t/ga yuqori tovarbop kartoshka hosili olingan.

Takroriy ekin sifatida kartoshkaning tezpishar Arizona, o‘rtatezpishar Evolyushn, o‘rtapishar Saviola navlarining o‘simta ko‘chatlarini o‘shni boshqaruvchi Gibbersib preparatida ishlab ekish, o‘suv davrida Bio-Si bioo‘g‘iti bilan 75 g/ga me‘yorida ko‘chatlar tutgandan so‘ng, shonalash va gullash davrida ildizdan tashqari oziqlantirib yetishtirish agrotexnologiyasi Samarqand viloyatining Bulung‘ur, Toyloq va Oqdaryo tumanlarida jami 6,3 gektar maydonga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024-yil 21-dekabrda №05/06-04-674-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, ushbu agrotexnologiyani qo‘llash orqali kartoshkani urug‘lik tuganaklaridan 4-5 ta sog‘lom o‘simta ko‘chat olinib, urug‘lik tuganak sarfi 2,2-2,4 barobar tejalishi hamda andozaga nisbatan gektaridan qo‘shimcha 0,7-2,4 t/ga hosil olinib, 23,2-28,4 mln.so‘m/ga sof foyda hamda 70,1-90,2% rentabellik darajasiga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dala tajribalari har yili Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar institutining aprobatsiya komissiyasi tomonidan sinovdan o'tkazilgan hamda ijobiy baholangan, tadqiqot o'tkazilgan yillar bo'yicha hisobotlar "O'simlikshunoslik va meva-sabzavotchilik" kafedrasida va institutining ilmiy hisobot yig'ilishlarida muhokama qilingan. Dissertatsiya ishining asosiy ilmiy natijalari Respublika miqyosidagi anjumanlarda 2 marta va Xalqaro anjumanlarda 3 marta ma'ruza qilingan hamda muhokamadan o'tgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan 1 ta tavsiyanoma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 4 tasi mahalliy va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiyaning tarkibi kirish, beshta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan. Tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob'ekti va predmetlari tavsiflangan, O'zbekiston respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari va ularning ishonchliligi bayon qilingan, olingan natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, chop etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Kartoshka navlarini tuganaksiz ko'paytirish usullari hamda yetishtirish texnologiyasiga oid ilmiy manbalar sharhi**" deb nomlangan birinchi bobida dissertatsiya mavzusi bo'yicha kartoshkani o'simtalaridan, generativ urug'idan, in-vitro sharoitida ko'paytirish hamda o'simta ko'chatlaridan yetishtirish orqali urug'lik tuganaklar sarfini tejash, kartoshka parvarishida o'sishni boshqaruvchi preparatlar, bioo'g'itlar, fiziologik aktiv moddalar bilan ildizdan tashqari oziqlantirish bo'yicha xorijda va respublikamizda olib borilgan ilmiy manbalar tahlil etilib, arzon tannarxli, sifatli, yuqori hosildorlikni ta'minlaydigan kartoshka yetishtirishning samarali agrotexnologik tadbirlarini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy ishlarni olib borish zarurligi bayon etilgan.

Dissertatsiyaning "**Tadqiqot joyi, sharoitlari va uslublari**" deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot o'tkazilgan Samarqand viloyatining tuproq-iqlim sharoitlari hamda tadqiqot o'tkazish uslublari, kartoshkani tuganaksiz o'simta ko'chatlaridan yetishtirish agrotexnologiyasi batafsil bayon etilgan.

Samarqand viloyatining iqlim sharoiti haroratning o'zgaruvchanligi, yog'ingarchilikning kam bo'lishi va ularning yil davomida bir tekis tushmasligi bilan ajralib turadi, shuningdek, eng sovuq kunlar yanvar oyida 2,0-2,4°C, fevral oyida 3,1-4,2°C, eng yuqori havo harorati iyun oyida 24,8-29,2°C, iyul oyida 26,1-31,9°C bo'lishi ta'kidlangan. Asosiy yog'in-sochinlar kuz-qish va bahor oylarida

kuzatilib, 135,0-246,5 mm, yoz oylarida yog'ingarchilik juda kam bo'lishi tavsiflangan.

Kartoshka navlaridan o'simta ko'chat olish va parvarishlash bo'yicha dala tajribasi 12 ta variantda, tuganak va o'simta ko'chatlardan kartoshka yetishtirishda o'sishni boshqaruvchi preparat va bioo'g'itlar bilan ildizdan tashqari oziqlantirish bo'yicha dala tajribasi 15 ta variantda, 4 takrorlikda o'tkazilgan, bitta paykal maydoni 56 m<sup>2</sup>, tajriba umumiy maydoni 6048 m<sup>2</sup> ni tashkil etgan.

Dala tajribalari o'tkazilgan o'tloqi bo'z tuproqlarining mexanik tarkibi o'rtacha qumoq, yer osti suvlari 4-5 metr, haydalma 0-30 sm qatlamda tuproq muhiti kuchsiz ishqoriy pH-7,1-7,3; gumus miqdori 1,24-1,25 %, yalpi azot 0,14-0,15 %, fosfor 0,21-0,22 %, kaliy 2,48-2,54 %, ularning harakatchan shakli N-NO<sub>3</sub> -15,4-15,9; P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> - 20,9-21,4; K<sub>2</sub>O - 225-229 mg/kg ni, ushbu ko'rsatkichlar haydalma osti 30-50 sm qatlamda tegishlicha, pH-7,4-7,5; 1,12-1,14; 0,10-0,11; 0,15-0,16; 2,15-2,25 % va 8,9-9,2; 14,1-15,1; 198-194 mg/kg bo'lganligi keltirilgan.

Tajriba dalasi tuprog'ining haydalma (0-30, 30-50 sm) qatlamdagi gumus I.V.Tyurin, yalpi azot, fosfor, kaliy I.M.Malseva va L.P.Gretsinko, nitratli azot Grandvald-Lyaju, harakatchan fosfor V.P.Machigin, almashinadigan kaliy P.V.Protasov uslubi bo'yicha aniqlangan. Fenologik kuzatash va biometrik o'lchashlar "Davlat nav sinash komissiyasi", "Sabzavot, poliz va kartoshka ekinlarida tajribalarini o'tkazish uslublari" va "Dala tajribalarini o'tkazish uslublari" bo'yicha olib borilgan.

Dissertatsiyaning **"Kartoshka navlarini takroriy ekin sifatida o'simta ko'chatlaridan yetishtirishga mosligi bo'yicha baholash"** deb nomlangan uchinchi bobida kartoshka navlarining turli vazndagi tuganaklardan o'simta chiqimi, o'simta ko'chatlarning tutuvchanligi, o'sishi, rivojlanishi, mahsuldorligi va hosildorligi bo'yicha tadqiqot natijalari bayon etilgan.

Kartoshkaning tezpishar Alyaska (st.), Universa, Arizona va Rozara navlari turli (30-50; 50-80; 80-100 g) vazndagi urug'lik tuganaklardan o'stirilganda navlar bo'yicha o'simta ko'chatlar chiqimi tegishlicha: 2,3-3,8; 2,6-4,2; 2,7-4,6 donani, o'rtatezpishar Impala (st.), Zafira, Evolyushn, Aladin va Memfis navlarida tegishlicha: 2,9-3,6; 3,4-3,8; 3,9-4,3 donani, o'rtapishar Lizetta (st.), Saviola va Silvana navlarida tegishlicha: 3,1-4,0; 3,3-4,6; 3,5-5,2 donani tashkil etgan. Kartoshkani o'simta ko'chatlaridan yetishtirish hisobiga urug'lik tuganak sarfini 2,2-2,7 barobar yoki 61,7-65,2 % ga tejalishiga erishilgan.

Takroriy ekinda kartoshka navlari o'simta ko'chatlaridan o'stirilganda navlar bo'yicha o'simta ko'chatlarning tutuvchanligi va amal davri oxirida saqlanib qolgan ko'chatlar soni 100,7-110,6 ming dona/ga yoki 70,9-77,9 % ni tashkil etgan. Rivojlanish fazalarining davomiyligi tezpishar Alyaska (st.), Universa, Arizona va Rozara navlarida o'simta o'tqazilgandan-gullashgacha 45-48 kun, gullash-palak sarg'ayish 32-37 kun va o'simta o'tqazilgandan palak sarg'ayishgacha 78-85 kun, bu ko'rsatkichlar tegishlicha o'rtatezpishar Impala (st.), Zafira, Evolyushn, Aladin va Memfis navlarida 55-59; 38-41; 92-55 kun,

o'rtapishar Lizetta (st.), Saviola va Silvana navlarida esa 60-61; 38-42; 98-103 kun davom etganligi aniqlangan.

O'simta ko'chatlaridan yetishtirilgan kartoshkani tezpishar Alyaska (st.), Universa, Arizona va Rozara navlarida o'simlik bo'yi 83,2-90,1 sm, barg soni 80,1-82,3 dona, bir tup palak vazni 292,1-312,3 g, ildiz vazni 24,7-26,9 g, ildiz hajmi 25,6-27,8 sm<sup>3</sup> ni tashkil etgan. O'rtatezpishar Impala (st.), Zafira, Evolyushn, Aladin va Memfis navlarida 85,1-91,6 sm, 85,4-86,5 dona, 315,2-330,2 g, 25,9-27,4 g, 27,5-28,5 sm<sup>3</sup>, o'rtapishar Lizetta (st.), Saviola va Silvana navlarida 92,1-97,8 sm, 86,2-87,1 dona, 334,2-341,7 g, 27,5-28,5 g, 29,8-29,2 sm<sup>3</sup> ekanligi qayd etilgan.

Takroriy ekinda kartoshka tezpishar Universa, Arizona va Rozara navlarida bir uya(tup palak)da tuganak hosili 304,1-309,6 g. yoki standart navga nisbatan 11,8-17,3 g. ga yuqori bo'lgan. Eng yuqori tuganak hosili o'rtatezpishar Evolyushn va Aladin navlarida 334,1-341,7 g. ni tashkil etgan yoki standart navga nisbatan 33,9-41,5 g, o'rtapishar Saviola va Silvana navlarida 365,6-375,7 g qayd etilib, standart navga nisbatan 20,3-30,3 g. ga yuqori tuganak hosili olingan.

### 1-jadval

#### Takroriy ekin sifatida o'simta ko'chatlaridan yetishtirilgan kartoshka navlarining hosildorligi (2019-2021 yy.)

T/r	Nav nomi	Hosildorlik, t/ga				Tovar hosil	
		2019 y	2020 y	2021 y	o'rtacha	t/ga	%
<b>Tezpishar navlar</b>							
1.	Alyaska (st.)	19,9	20,1	20,6	20,2	19,0	94,1
2.	Universa	20,9	21,2	23,0	21,7	20,5	94,4
3.	Arizona	22,1	23,4	22,6	22,7	21,6	95,2
4.	Rozara	19,9	20,9	22,5	21,1	20,0	95,0
	$S_{\bar{x}}$ %	3,29	3,19	3,40			
	EKIF <sub>05</sub> t/ga	2,18	2,18	2,41			
<b>O'rtatezpishar navlar</b>							
5.	Impala (st.)	19,6	21,3	22,1	21,0	19,8	94,3
6.	Zafira	21,7	23,0	23,7	22,8	21,5	94,5
7.	Evolyushn	22,9	23,5	24,1	23,5	22,5	95,8
8.	Aladin	20,6	21,4	22,8	21,6	20,6	95,6
9.	Memfis	21,1	22,7	23,4	22,4	21,2	94,8
	$S_{\bar{x}}$ %	3,08	3,25	3,14			
	EKIF <sub>05</sub> t/ga	2,01	2,24	2,24			
<b>O'rtapishar navlar</b>							
10.	Lizetta (st.)	20,5	21,6	22,2	21,4	20,1	93,8
11.	Saviola	23,4	24,3	25,2	24,3	23,3	96,1
12.	Silvana	21,5	22,9	24,3	22,9	22,0	96,2
	$S_{\bar{x}}$ %	3,70	3,52	3,27			
	EKIF <sub>05</sub> t/ga	2,09	2,10	2,03			

Kartoshka tezpishar Alyaska (st.), Universa va Rozara navlarida bir (tup palakda) uyada 30 g.dan mayda (notovar) tuganaklar soni 1,2-1,8 dona yoki 27,9-40,0 % ni, o'rtatezpishar Impala (st.), Zafira va Aladin navlarida 1,3-1,8 dona yoki 31,7-41,1 % ni va o'rtapishar Lizetta (st.), Saviola va Silvana navlarida 1,4 dona

yoki 25,9 % ni tashkil etib, kartoshka tezpishar Arizona, o'rtatezpishar Evolyushn, Memfis va o'rtapishar Saviola hamda Silvana navlarida 30 g.dan mayda (notovar) tuganaklar hosil bo'lmagan.


Tahlillarga ko'ra, kartoshkani tezpishar Alyaska (st.), Universa, Arizona va Rozara navlarida bir (tup palakda) uyada tuganaklar soni o'rtacha 4,3-5,0 donani va o'rtacha bitta tuganak vazni 61,2-70,7 g. ni tashkil etib, standart navga nisbatan 11,8-17,3 g. yuqori bo'lgan. Shuningdek, tuganaklar soni va o'rtacha vazni bo'yicha yuqori ko'rsatkichlar o'rtatezpishar Evolyushn (4,6 dona; 74,3 g), Memfis (4,1; 79,6 g), o'rtapishar Saviola (72,3 g) va Silvana (71,7 g) navlarida qayd etilgan.

Takroriy ekin sifatida o'rganilgan kartoshkani tezpishar Universa, Arizona va Rozara navlari o'simta ko'chatlaridan o'stirilganda hosildorlik o'rtacha 21,1-22,7 t/ga, standart navga nisbatan 0,9-2,5 t/ga yoki 104,4-112,3 % qo'shimcha hosil olingan. O'rtatezpishar Zafira, Evolyushn, Aladin va Memfis navlarida esa, tegishlicha: 22,4-23,5 t/ga; 1,4-3,5 t/ga yoki 106,6-111,9 %, o'rtapishar Saviola va Silvana navlarida 22,9-24,3 t/ga; 1,4-2,8 t/ga yoki 106,5-113,0 % ni tashkil etgan.

Dissertatsiyaning **“Takroriy ekinda kartoshka navlari o'simta ko'chatlari o'sishi, rivojlanishi va hosildorligiga o'sishni boshqaruvchi preparatlar va bioo'g'itlarning ta'siri”** deb nomlangan to'rtinchi bobida takroriy ekinda o'simta ko'chatlaridan o'stirishga mosligi bo'yicha ajratilgan kartoshka navlari birinchi o'simtali va o'simtasiz tuganaklaridan hamda o'simta ko'chatlaridan o'stirilganda, o'simta ko'chatlar ekish oldidan o'sishni boshqaruvchi preparatlarda ishlanib, ishlanmasdan va o'suv davrida turli bioo'g'itlar bilan ildizdan tashqari oziqlantirilib parvarishlanganda o'sishi, rivojlanishi va hosildorligini o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari bayon etilgan.

Kartoshkaning tezpishar Arizona, o'rtatezpishar Evolyushn va o'rtapishar Saviola navlari takroriy ekinda o'simta ko'chatlaridan ekilganda o'simta ko'chatlarining tutuvchanligi nav va variantlarga mos holda 04-05.07; 04-05.07; 05.07 da, shonalash 09-10.08; 13-14.08; 17-18.08 da, gullash 20-21.08; 27-28.08; 01-02.09 da, palak sarg'ayish 29-30.09; 07-10.10 va 15-18.10 da, eng kech palak sarg'ayish o'rtapishar Saviola navida qayd etilgan. Tezpishar Arizona navi o'simtali tuganagidan o'stirilganda bir tup o'simlikda yon shoxlar soni 5,3 dona, o'simtasi olingan tuganaklaridan o'stirilganda 5,0 dona, o'rtatezpishar Evolyushn navida 5,7 va 5,4 dona, o'rtapishar Saviola navida 6,4 va 5,5 donani tashkil etgan. Tezpishar Arizona navi takroriy ekinda o'simta ko'chatlaridan o'stirib, o'suv davrida ildizdan tashqari Baykal EM-1 bioo'g'iti (3,5 kg/ga) bilan oziqlantirilganda o'simliklarda yon shoxlar soni 3,8-4,2 dona, o'simta ko'chatlar ekish oldidan Gibbersib eritmasida (25 g/10 l suvga) ishlanib, o'suv davrida Organit N (3,0 kg/ga) bilan ildizdan tashqari oziqlantirilganda (Gibbersib+Organit N) 4,3-4,7 dona, Bio-Si (75 g/ga) bioo'g'iti bilan (Gibbersib+Bio-Si) oziqlantirilganda 5,0-5,4 dona shakllangan. Bu ko'rsatkichlar o'rtatezpishar Evolyushn navida tegishlicha 4,1-4,5; 4,4-4,8; 5,4-5,8 donani; o'rtapishar Saviola navida 4,3-4,7; 4,6-5,0; 6,0-6,4 donani tashkil etgan.

Tadqiqot yillarida kartoshkaning tezpishar Arizona navi birinchi o'simtali tuganagi bilan ekilganda tuproqning 0-20 sm qatlamidagi ildiz vazni va hajmi 45,0-45,8 g. va 46,2-48,6 sm<sup>3</sup>, o'simtasiz sindirib olingan tuganaklar ekilganda 42,6-43,2 g. va 43,9-46,0 sm<sup>3</sup>, o'simta ko'chatlari o'suv davrida Baykal EM-1 bioo'g'iti bilan oziqlantirilganda 34,9-35,5 g. va 35,0-36,9 sm<sup>3</sup>, o'simta ko'chatlari ekish oldidan Gibbersib eritmasida ishlanib, o'suv davrida ildizdan tashqari Organit bioo'g'iti bilan oziqlantirilganda 38,8-41,1 g. va 40,3-42,0 sm<sup>3</sup>, Bio-Si bioo'g'iti bilan oziqlantirilganda esa, 41,8-43,3 g va 42,5-44,1 sm<sup>3</sup> bo'lganligi aniqlangan. Bu ko'rsatkichlar mos ravishda o'rtatezpishar Evolyushn navida 45,7-46,5 g. va 47,2-49,0 sm<sup>3</sup>, 43,4-44,4 g. va 45,7-47,1 sm<sup>3</sup>, 35,8-36,5 g. va 35,8-38,0 sm<sup>3</sup>, 40,5-42,1 g. va 41,7-42,8 sm<sup>3</sup>, 42,8-44,4 g. va 43,2-45,1 sm<sup>3</sup>, o'rtapishar Saviola navida esa, 47,5-48,3 g. va 48,8-49,1 sm<sup>3</sup>, 44,2-45,8 g. va 46,1-48,3 sm<sup>3</sup>, 36,4-38,1 g. va 37,8-39,0 sm<sup>3</sup>, 41,8-44,0 g. va 42,9-44,4 sm<sup>3</sup>, 43,9-45,3 g. va 44,9-46 sm<sup>3</sup> ni tashkil etgan.




**1-rasm. Kartoshka navlari tuganak va o'simta ko'chatlari ildizdan tashqari oziqlantirilganda palak vazning shakllanishi g. (2022-2024 yy.)**

Kartoshkaning Arizona navi o'simtali tuganaklaridan (nazorat) o'stirilganda bir tup o'simlik palak vazni 381,2 g, o'simtasiz tuganakdan o'stirilganda 372,6 g. bo'lib, nazoratga nisbatan 8,6 g. ga kam palak shakllangan. Evolyushn va Saviola navlarida esa o'simtali va o'simtasiz tuganaklaridan o'stirilganda bu ko'rsatkichlar tegishli 425,4; 439,7 va 417,1; 425,1 g. yoki nazoratga nisbatan 8,3 va 14,6 g. ga palak vazni kam bo'lgan. Kartoshka navlari o'simta ko'chatlaridan ekilib, o'suv davrida (andoza) Baykal EM-1 bioo'g'iti bilan oziqlantirilganda amal davri oxiriga kelib palak vazni tezpishar Arizona navida 332,7 g, o'rtatezpishar Evolyushn navida 370,1 g, o'rtapishar Saviola navida 380,4 g. ni tashkil etgan. Shuningdek, kartoshka o'simta ko'chatlari ekish oldidan o'sishni boshqaruvchi preparat

Gibbersib eritmasida ishlanib, o'suv davrida Organit N yoki Bio-Si kabi bioo'g'itlari bilan ildizdan tashqari oziqlantirilganda palak vazni tegishlicha 344,7-370,9; 392,5-410,2; 395,2-428,7 g. bo'lib, andoza variantga nisbatan navlarda tegishlicha 12,0-38,2; 22,4-40,1; 14,8-48,3 g. ga yuqori bo'lganligi qayd etilgan.

Takroriy ekinda tezpishar Arizona navi o'simtali tuganagidan ekilganda bir tup(uya)dagi tuganak vazni o'rtacha 460,7 g., tuganaklar soni 5,5 dona, bitta tuganakning vazni 84,1 g., o'simtasiz tuganagidan ekilganda tegishlicha 428,2 g., 5,2 dona, 82,3 g.ni tashkil etib, o'simta ko'chatlari o'suv davrida Baykal EM-1 bioo'g'iti bilan ildizdan tashqari oziqlantirilganda 360,1 g., 5,5 dona, 80,0 g., o'simta ko'chatlari ekish oldidan Gibbersib eritmasida ishlanib o'suv davrida ildizdan tashqari Organit N bioo'g'iti bilan oziqlantirilganda 375,8 g., 4,6 dona, 83,7 g., shuningdek, o'suv davrida Bio-Si bioo'g'iti oziqlantirilganda 390,2 g., 4,7 dona, 83,1 g.ni tashkil etgan. Bu ko'rsatkichlar o'rtatezpishar Evolyushn navida tegishlicha: 490,7 g., 6,0 dona, 81,7 g.; 462,2 g., 5,6 dona, 82,6 g.; 381,5 g., 4,6 dona, 82,9 g.; 400,6 g., 4,7 dona, 85,2 g.; 420,7 g., 5,0 dona, 84,1 g. bo'lganligi aniqlangan. Shuningdek, o'rtapishar Saviola navida esa mos ravishda 545,7 g., 6,5 dona, 83,9 g.; 504,6 g., 6,1 dona, 82,7 g.; 435,7 g., 5,2 dona, 83,8 g.; 450,8 g., 5,2 dona, 86,7 g.; 465,8 g., 5,5 dona, 84,7 g.ni tashkil etgan.

Tajribada kartoshka navlari takroriy ekinda o'simtali va o'simtasiz tuganak bilan hamda o'simta ko'chatlar turli tarkibli preparatlar bilan ildizdan tashqari oziqlantirib yetishtirilganda tajriba variantlari bo'yicha kartoshka hosildorligi 23,9 t/ga.dan 33,5 t/ga. ni tashkil etgan.



## 2-rasm. Takroriy ekinda kartoshka navlari o'simta ko'chatlari ildizdan tashqari oziqlantirilganda tuganak vazni, g. (2022-2024 yy.)

Kartoshkaning tezpishar Arizona navi nishlatilgan o'simtali tuganagidan (nazorat) ekilganda tovar hosildorlik o'rtacha 30,0 t/ga.ni, tovar hosil chiqimi 97,5 % tashkil etgan. O'simtasi olingan tuganaklardan ekilganda esa tovar hosili

25,3 t/ga, tovar hosil chiqimi 96,7 % ni tashkil etib, nazoratga nisbatan tovar hosili 4,7 t/ga yoki 0,8 % ga kam bo'lgan. Kartoshka navlari o'simta ko'chatlari o'suv davrida Baykal EM-1 bioo'g'iti bilan ildizdan tashqari oziqlantirilgan andoza variantda esa tegishli: 23,1 t/ga va 96,5 % ni tashkil etgan.

## 2-jadval

### Takroriy ekinda kartoshka navlari o'simta ko'chatlari ildizdan tashqari oziqlantirilganda hosildorlik ko'rsatkichlari (2022-2024 yy.)

T/r	Tajriba variantlari	Yillar bo'yicha hosildorlik t/ga			O'rtacha hosil-dorlik, t/ga	Shundan tovar hosil	
		2022 y	2023 y	2024 y		t/ga	%
<b>Tezpushar Arizona navi</b>							
1.	O'simtali tuganak ishlanmagan (nazorat)	29,7	30,9	31,8	30,8	30,0	97,5
2.	O'simtasiz tuganak ishlanmagan	25,4	26,1	27,1	26,2	25,3	96,7
3.	O'simta ko'chat Baykal EM-1 bilan ishlangan (andoza)	23,2	24,5	24,0	23,9	23,1	96,5
4.	O'simta ko'chat Gibbersib+ Organit H bilan ishlangan	24,8	25,9	24,9	25,2	24,4	96,8
5.	O'simta ko'chat Gibbersib+Bio-Si bilan ishlangan	25,2	26,0	26,5	25,9	25,2	97,3
	$S_{\bar{x}}$ %	3,19	3,20	3,17			
	EKIF <sub>05</sub> t/ga	2,52	2,64	2,62			
<b>O'rtatezpushar Evolyushn navi</b>							
6.	O'simtali tuganak ishlanmagan (nazorat)	32,0	32,9	33,2	32,7	32,1	98,3
7.	O'simtasiz tuganak ishlanmagan	26,9	27,9	28,6	27,8	26,7	96,2
8.	O'simta ko'chat Baykal EM-1 bilan ishlangan (andoza)	24,3	25,1	25,7	25,0	24,2	96,9
9.	O'simta ko'chat Gibbersib+ Organit H bilan ishlangan	25,4	26,1	26,8	26,1	25,4	97,2
10.	O'simta ko'chat Gibbersib+Bio-Si bilan ishlangan	26,4	27,1	27,8	27,1	26,5	98,1
	$S_{\bar{x}}$ %	3,11	3,23	3,12			
	EKIF <sub>05</sub> t/ga	2,59	2,77	2,74			
<b>O'rtapishar Saviola navi</b>							
11.	O'simtali tuganak ishlanmagan (nazorat)	32,6	33,7	34,2	33,5	32,8	98,0
12.	O'simtasiz tuganak ishlanmagan	27,9	28,7	29,2	28,6	27,6	96,5
13.	O'simta ko'chat Baykal EM-1 bilan ishlangan (andoza)	24,9	25,5	26,1	25,5	24,5	96,2
14.	O'simta ko'chat Gibbersib+ Organit H bilan ishlangan	25,6	26,6	27,0	26,4	25,5	96,7
15.	O'simta ko'chat Gibbersib+Bio-Si bilan ishlangan	27,1	28,0	28,6	27,9	27,2	97,8
	$S_{\bar{x}}$ %	3,34	3,04	3,10			
	EKIF <sub>05</sub> t/ga	2,85	2,67	2,75			

O'simta ko'chatlar ekish oldidan Gibbersib eritmasida ishlanib, o'suv davrida Organit N bioo'g'itida ildizdan tashqari oziqlantirilganda tovar hosili 24,4 t/ga va chiqimi 96,8 % yoki andozaga nisbatan 1,3 t/ga yuqori bo'lgan. O'simta ko'chatlar ekish oldidan Gibbersib eritmasida ishlanib, o'suv davrida Bio-Si bioo'g'itida oziqlantirilganda 25,2 t/ga va 97,8 % yoki 2,0 t/ga yuqori hosil olingan.

